

O'qish savodxonligi fanidan dars ishlanmalari

3-sinf 1-chorak

1-mavzu: Vatan madhi dillarda

Darsning maqsadi:

- a) ta'limiylar:** o'quvchilarni matn mazmuni bilan tanishtirish, Vatan haqida kengroq tushuncha berish, matn ustida ishlashga o'rgatish.
- b) tarbiyaviy:** o'quvchilarga Vatanni ardoqlashni, qadrlashni o'rgatish, yosh avlodni Vatanga cheksiz muhabbat, ajdodlarga nisbatan iftixor, yuksak ishonch ruhida tarbiyalash.
- c) rivojlantiruvchi:** o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini, lug'at ustida ishlash, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Dars turi: yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi dars.

Dars metodlari: Suhbat, tushuntirish, "Aqliy hujum", "Klaster" metodi, "Sinkveyn" metodi, ta'limiylar o'yinlar.

Dars jahozi: Rangli ko'rgazmalar, tarqatma materiallar, videolavha.

Darsning borishi:


I.Tashkiliy qism.

Salomlashish. Davomatni aniqlash.o'quvchilarni darsga hozirlash.

II.Yangi mavzu bayoni.

O'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi va o'quvchilar o'z fikrlarini bildirishadi:


*Ona yurtimizning go`zal va
osmono`par binolari, yurtimiz
sha'nini qo`riqlab, yigitlik burchini
bajarayotgan askarlar, ko`chalarda
yangrayotgan bolalarning shodon
kulgusi nimaning ramzi deb
o`ylaysiz?*



"Aqliy hujum"

1. Vatan va vatanparvarlik tushunchalarini qanday tushunasiz?
2. Vatanimiz gullab yashnashi uchun biz qanday hissa qo`shishimiz mumkin?
3. Vatanga sodiq o`g`lonlar deb kimlarni ataymiz?
4. Vatan tinchligini buzayotgan kimsalarni qanday nom bilan ataydilar? o`quvchilar "Vatan" so`ziga ta`rif beradilar. "Klaster" metodidan foydalaniladi.

"Klaster" metodi



Darslik bilan ishlash.

"Vatan madhi dillarda" matni o'quvchilarga ifodali o'qitiladi. Mazmuni tushuntiriladi.

Lug`at ishi:

daxldor – biror narsaga bevosita bog`liqligi bo`lgan, aloqador
iftixor – faxrlanish, shon-sharaf hissi

mas'uliyat- biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun javobgarlik

"Zanjir" usuli.

Matn o'quvchilarga zanjir usulida o'qitiladi.

Dam olish daqiqasi.

"O'zbekiston" qo'shig'i kuyylanadi.

III. Yangi mavzuni mustahkamlash.

"Kim hozirjavob“ o`yini.

Savollarga javob beriladi.

"Topqirlilik mashqi“.

Matnga mos bo`lmagan rasmni aniqlanadi.

"Maqollar chashmasi“ o`yini.

- Vataning tinch – sen tinch.
- Bulbul chamanni sevar, Odam – Vatanni.
- Begona tuproq – devona tuproq.

Mashq daftar bilan ishlash.

1-topshiriq. “O`zbekiston” deganda xayolingizga nimalar keladi? Shu so`zlarni bo`g`inga ajratib yozing.

Va-tan, o-na yurt, mam-la-kat, o`l-ka, di-yor,.....

2-topshiriq. So`zlarning ma’nosini izohlang.

Tinchlik – osoyishta holat **Mahalla** – O`zbekistonda ma’muriy-hududiy birlik
Oila – ota-onalari va farzandlar.

3-topshiriq. Vatan haqidagi maqollarni davom ettiring.

Vataning tinch – sen tinch.

Bulbul chamanni sevar, odam –Vatanni.

Begona tuproq – devona tuproq.

4-topshiriq. Sinkveyn tuzing.

Nima? **Vatan**

Qanday? **Muqaddas, yagona**

Nima qiladi? **Ulg'aytiradi, tarbiyalaydi, asraydi**

Gap: **Muqaddas va yagona Vatanimizni sevamiz.**

Ma'nodosh so'z: Ona-yurt

5-topshiriq. Rasm asosida bajariladi.

6-topshiriq. O'zbekistondagi viloyatlar nomini yozing.

Andijon, Buxoro, Farg'ona, Jizzax, Namangan, Navoiy, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Xorazm.

IV.Darsni yakunlash va o'quvchilarni baholash.

- Vatan deganda ko'z oldingizga nimalar keladi?
- Siz kelajakda o'z Vataningiz ravnaqi uchun qanday hissa qo'shamoqchisiz?

O'quvchilar baholab, rag'batlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish.

Matnni ifodali o'qish va qayta hikoyalash.

"Vatan – mening tasavvurimda" mavzusida hikoya tuzish.

2-mavzu: "Salom, maktab!" she'ri

Darsning maqsadi:

- a) **ta'limiy:** o'quvchilarni she'r matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, ifodali o'qishni o'rgatish.
- b) **tarbiyaviy:** o'quvchilarni ilm olishga qiziqtirish, maktabni qadriga yetish va maktabdagi jihozlarni ehtiyyotlash kerakligini tushuntirish.
- c) **rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning ifodali o'qish malakalarini , ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.